

**“Tashkent International University of Education” xalqaro universiteti
bakalavriat talabalari uchun “TIUE Scholarships” dasturini amalga oshirish
tartibi to‘g‘risida**

NIZOM

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu Nizom “Tashkent International University of Education” (keyingi o‘rinlarda — Universitet) bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun “TIUE Scholarships” dasturining (keyingi o‘rinlarda — Dastur) maqsadlari, shartlari, amalga oshirish tartibi, ishtirok etish, tayinlash, to‘xtatib turish va bekor qilish qoidalarini belgilaydi.

1.2. “TIUE Scholarships” akademik muvaffaqiyatlarga hamda darsdan tashqari faoliyatlarida yuqori natijalarga erishgan talabalarni dastur doirasida ajratilgan mablag‘lar hisobidan o‘qish to‘lovidan qisman yoki to‘liq ozod qilish ko‘rinishidagi moliyaviy ko‘makni nazarda tutadi.

1.3. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, Universitet Ustavi va Universitetning ichki normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.4. Ushbu Nizom 2025/2026-o‘quv yilida Universitetning 1-kursiga to‘lov-kontrakt asosida qabul qilingan barcha bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari talabalariga tatbiq etiladi.

1.5. “TIUE Scholarships” dasturi ushbu Nizom talablari asosida Univesitet Kengashi (keyingi o‘rinlarda Kengash) qarorlariga muvofiq taqdim etiladi.

1.6. “TIUE Scholarships” dasturi - talabalarning akademik muvaffaqiyatlarini rag‘batlantirish, ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirish va akademik halollik

tamoyillariga amal qilishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan moliyaviy ko'mak tizimidir.

1.7. Dasturni moliyalashtirish manbalari:

- Universitetning o'z mablag'lari;
- ta'sislar, hamkorlar va homiylik tomonidan ajratilgan maqsadli mablag'lar;
- homiylik tartibidagi xayriya yordamlari;
- grantlar va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa tushumlar.

2. "TIUE SCHOLARSHIPS" DASTURINING MAQSAD VA VAZIFALARI

2.1. Dasturining asosiy maqsadi - talabalarning motivatsiyasi, tashabbuskorligi va akademik halolligini qo'llab-quvvatlash orqali qulay ta'lim olish imkoniyatini yaratish va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashdir.

2.2. Asosiy vazifalar:

sifatli ta'lim olish uchun teng imkoniyatlar yaratish;

yuqori akademik ko'rsatkichlarga ega bo'lgan talabalarni rag'batlantirish;

talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish;

Universitetning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etayotgan talabalarga ko'mak berish.

3. HAKAMLAR HAY'ATI HAMDA APELLYATSIYA KOMISSIYASI

3.1. "TIUE Scholarships" dasturini amalga oshirish bo'yicha Hakamlar hay'ati hamda Apellyatsiya komissiyasi tarkibi Universitet rektorining tegishli buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

3.2. Hakamlar hay'atining vazifa va vakolatlari:

- "TIUE Scholarships" uchun topshirilgan arizalarni ko'rib chiqish;
- nomzodlarning belgilangan talablarga mosligini baholash;
- Universitet Kengashiga baholash natijalarini taqdim etish;
- "TIUE Scholarships"ga ega bo'lgan talabalar bilan belgilangan tartibda ishlash.

3.3. Apellyatsiya komissiyasining vazifa va vakolatlari:

- nomzodlar tomonidan taqdim etilgan arizalarni belgilangan muddatlarda o'rganish;
- o'rganish natijalari yuzasidan nomzodlarni o'rnatilgan tartibda habardor qilish;
- Nizomda belgilangan tartibni buzish holatlari aniqlangan taqdirda, mazkur holat yuzasidan Kengashga asosli ma'lumotlarni taqdim etish.

3.4. Qaror qabul qilish tartibi:

3.4.1. Muhokamada Hakamlar hay'atining kamida 2/3 qismi ishtirok etganda qaror qabul qilinadi.

3.4.2. Ovozlar teng bo'lganda Hay'at Raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

3.4.3. Hay'at yig'ilishlari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi va Rais hamda Kotib tomonidan imzolanadi.

3.4.4. Manfaatlar to'qnashuvi majburiy ravishda deklaratsiya qilinadi, manfaatlar to'qnashuviga ega bo'lgan a'zolar esa o'zini o'zi chetlashtirishi (samootvod) shart.

3.4.5. Kotib arizalarni qabul qilish, hujjatlarning to'liqligini tekshirish va yig'ilishlarni bayonnomalarini rasmiylashtirish uchun mas'uldir.

3.4.6. Hakamlar hay'ati nomzodlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni tahlil qiladi va eng yuqori balldan eng past ballgacha reyting natijalari asosida grant o'rinlariga da'vogarlar ro'yxatini shakllantiradi.

3.4.7. Barcha nomzodlarning natijalari ko'rsatilgan ma'lumotlar Universitet Kengashiga taqdim etiladi.

3.4.8. Universitet Rektori buyrug'i bilan "TIUE Scholarships"ga ega bo'lgan talabalar ro'yxati tasdiqlanadi.

3.4.9. "TIUE Scholarships"ga ega bo'lgan talabalar ro'yxati Universitetning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida e'lon qilinadi.

4. "TIUE Scholarships" taqsimoti (kvotalari):

4.1.1 "TIUE Scholarships" kvotalari Universitet Rektori tomonidan har yili kelgusi o'quv yili uchun tasdiqlanadi.

4.1.2. Kvotalarda quyidagi parametrlar ko'rsatiladi:

- ta'lim yo'nalishi;
- ta'lim shakli;
- bosqich;
- ta'lim tili;
- 1-semestr uchun kvotalar soni;
- 2-semestr uchun kvotalar soni.

4.2. "TIUE SCHOLARSHIPS" MIQDORI VA TAQDIM ETISH SHAKLI

4.2.1 "TIUE Scholarships" ning turlari va ta'lim xizmatlari uchun to'lov summasidan chegirma miqdori:

- "Premium" - 80-100 ballgacha — 50% chegirma A+; A
- "Standart" - 75-79 ballgacha — 30% chegirma B+
- "Progress" - 70-74 ballgacha — 10% chegirma B

4.3. "TIUE Scholarships"ni taqdim etish shartlari:

4.3.1. "TIUE Scholarships" ta'lim xizmatlari to'lovi uchun chegirma ko'rinishida taqdim etiladi va pul shaklida to'lab berilmaydi.

4.3.2. Chegirma miqdori tegishli ta'lim yo'nalishi bo'yicha "Ta'lim xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida"gi ommaviy ofertada belgilangan ta'lim xizmatlari uchun to'lov narxidan kelib chiqib hisoblanadi. Bunda, talabaga o'qishga kirish vaqtida taqdim etilgan chegirmalar saqlanib qolinadi.

4.3.3. "TIUE Scholarships"ni Universitetda kunduzgi bakalavriat shaklida tahsil olayotgan O'zbekiston Respublikasi va xorijiy fuqarolar ega bo'lishi mumkin.

4.3.4. Ariza topshirish sanasiga qadar nomzod talabalarda akademik qarzдорliklar va intizomiy jazolar mavjud bo'lmasligi shart.

4.4. Nomzodlarni baholash mezonlari:

4.4.1. Baholash 100 ballik mezon asosida quyidagicha taqsimlanadi:

$$0.9 * K1 + 0,1 * K2 = \text{Yakuniy ball}$$

Bunda:

K₁-Akademik ko'rsatkich (akademik transkript bo'yicha o'rtacha ball);

K₂ - talabaning darslardan tashqari faolligi, shu jumladan, Universitet loyihalari va tadbirlaridagi ishtiroki hamda volontyorlik, ijtimoiy tashabbuslar va yutuqlari uchun belgilangan ball.

- Ta'lim grantida ishtirok etish uchun talabaning akademik ko'rsatkichi kamida **70 ball** bo'lishi talab etiladi. Akademik ko'rsatkich bo'yicha maksimal ball **90 ball** etib belgilanadi.
- Talabaning darsdan tashqari faolligi uning universitet miqyosida va undan tashqarida o'tkaziladigan ilmiy, madaniy-ma'rifiy, sport hamda ijtimoiy tadbirlarda, shu jumladan bayram va rasmiy tadbirlarda ishtiroki asosida baholanadi. Mazkur ko'rsatkich bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar belgilangan tartibda ko'rib chiqilib, **10 ballgacha** ball beriladi.

Har ikkala ko'rsatkich bo'yicha to'plangan ballar yig'indisi asosida ta'lim grantiga nomzod talabalar reytingi shakllantiriladi.

4.4.2. Hakamlar hay'ati taqdim etilgan hujjatlarni tahlil qiladi va eng yuqori balldan eng past ballgacha reyting ro'yxatini tuzadi.

4.4.3. Ballar teng bo'lganda akademik ko'rsatkichi yuqori bo'lgan, shuningdek mazkur Nizomning 5.2-bandga muvofiq bo'lgan talabalar ustunlikka ega bo'ladi.

4.4.4. "TIUE Scholarships" miqdori moliyalashtirish manbalari yoki nomzodning akademik statusi o'zgargan taqdirda Universitet Kengashi tomonidan qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

5. "TIUE SCHOLARSHIPS" DA'VOGARLARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

5.1. Umumiy talablar:

- dasturda ishtirok etish uchun arizani belgilangan muddatda topshirish;
- Universitetning bakalavriat talabasi maqomiga ega bo'lish;

- to'lov-shartnoma asosida o'qish;
- ariza topshirish vaqtida akademik qarzдорliklar va universitet tomonidan hayfsan mavjud bo'lmashligi;
- Universitetning ichki tartib-qoidalariga rioya qilish;
- ushbu Nizomning 4.4-bandida ko'rsatilgan baholash mezonlariga mos bo'lish.

5.2. Qo'shimcha talablar:

5.2.1. Akademik ko'rsatkichlari teng bo'lgan holatlarda quyidagi toifaga kiruvchi nomzodlarga ustuvorlik beriladi:

- yetimlar yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan shaxslar;
- nogironligi bo'lgan talabalar;
- ko'p bolali (5 va undan ortiq farzandli) oilalar farzandi bo'lgan talabalar.

5.2.2. Talaba ijtimoiy holatini tasdiqlash uchun tegishli hujjatlarni taqdim etilishi shart.

5.2.3. Ijtimoiy mezonlar faqat akademik ko'rsatkichlar teng bo'lgan hollarda qo'shimcha mezon sifatida inobatga olinadi.

6. "TIUE SCHOLARSHIPS"GA EGA BO'LGAN TALABALARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. "TIUE Scholarships"ga ega bo'lgan talabalarning huquqlari:

- ta'lim grantini belgilangan miqdorda hamda belgilangan amal qilish davri mobaynida olish;
- yakuniy qarordan belgilangan tartibda shikoyat qilish (apellyatsiya);
- baholash mezonlari va tanlov natijalari bo'yicha to'liq ma'lumot olish;
- arizasining adolatli va tenglik asosida ko'rib chiqilishini talab qilish;
- akademik masalalar bo'yicha maslahat olish;

- Universitetning o'qishdan tashqari faoliyatida ishtirok etish.

6.2. "TIUE Scholarships" ega bo'lgan talabalarning majburiyatlari:

- Nizomda belgilangan darajada yuqori akademik ko'rsatkichlarga ega bo'lish;
- Universitetning ichki tartib-qoidalariga rioya qilish;
- akademik halollik tamoyillariga amal qilish;
- intizomiy jazo choralari qo'llanilmagan bo'lishi;
- belgilangan muddatlarda zarur hujjatlarni o'z vaqtida taqdim etish;
- grant o'rinlariga ega bo'lish huquqiga ta'sir qiluvchi holatlar o'zgarsa Universitetni xabardor qilish;
- Universitetning targ'ibot va tashviqot tadbirlarida faol ishtirok etish.

7. "TIUE SCHOLARSHIPS"NI TO'XTATISH, BEKOR QILISH VA QAYTARISH

7.1. "TIUE Scholarships"ni vaqtincha to'xtatishga asos bo'ladigan holatlar:

Sog'liqqa oid tibbiy ko'rsatmalar yoki oilaviy sabablarga ko'ra akademik ta'til berilishi.

7.2. "TIUE Scholarships"ni bekor qilishga asos bo'ladigan holatlar:

- Talabalar safidan chetlashtirilish;
- davlat granti (budjet) shakliga o'tish;
- qo'pol intizomiy qoidabuzarliklar sodir etish;
- plagiat yoki akademik qoidabuzarlik holatlari aniqlanishi;
- hujjat topshirishda yolg'on ma'lumot taqdim etish;

- talabaning o'zi dasturdan voz kechish istagini bildirishi.

7.3. "TIUE Scholarships"ni Universitetga qaytarish tartibi:

Talaba tomonidan Universitetda belgilangan tartib qoidalar hamda "Ta'lim xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida"gi shartnoma shartlari buzilganligi sababli o'qishdan chetlashtirilgan taqdirda — olingan chegirmalarning to'liq summasi qaytariladi;

talaba tomonidan yolg'on ma'lumot taqdim etilgan taqdirda — olingan chegirmalarning to'liq summasi qaytariladi;

boshqa ta'lim muassasasiga o'tganda, berilgan (taqdim etilgan) chegirmalarning to'liq summasi belgilangan tartibda qaytariladi.

7.4. Tashkiliy masalalar:

- "TIUE Scholarships"ni to'xtatish, bekor qilish yoki qaytarish Universitet Kengashi qarori bilan rasmiylashtiriladi;
- talaba Kengash qarori haqida elektron pochta orqali xabardor qilinadi.

8. "TIUE SCHOLARSHIPS" UCHUN HUJJATLAR TAQDIM ETISH TARTIBI VA MUDDATLARI

8.1. Hujjatlarni qabul qilish vaqti:

"TIUE Scholarships" o'quv yili davomida ikki marotaba (kuzgi va bahorgi semestrlar uchun) ajratiladi.

Birinchi kurs talabalari uchun o'quv yilining — 2-semestridan boshlab tashkil qilinadi.

8.2. Talabalar tomonidan hujjatlarni taqdim etish muddatlari:

1-semestrda "TIUE Scholarships" ga nomzod bo'lish uchun - **10-martgacha**;

2-semestrda “TIUE Scholarships” ga nomzod bo‘lish uchun - **10-iyulgacha** taqdim etiladi.

8.3. Talab etiladigan hujjatlar:

- tanlovda ishtirok etish uchun ariza;
- akademik transkript;
- maqolalar, sertifikatlar, diplomlar, tashakkurnomalar (mavjud bo‘lsa);
- 5.2-bandga muvofiq ijtimoiy statusni tasdiqlovchi hujjatlar (talab etilgan taqdirda).

8.4. Hakamlar hay’ati tomonidan nomzodlarning hujjatlarni o‘rganish tartibi:

- hujjatlarni qabul qilish va ro‘yxatga olish;
- hujjatlarni tanlov talablariga mosligini ko‘rib chiqish;
- baholash mezonlari asosida hujjatlarni o‘rganish va baholash;
- baholash natijalari asosida nomzodlarning reyting ro‘yxatini tuzish;
- reyting ro‘yxatlarini Universitet Kengashiga taqdim etish;
- Universitet Kengashi qarori bilan tasdiqlangan “TIUE Scholarships”ga ega bo‘lgan talabalar ro‘yxatini Universitetning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari orqali e‘lon qilish.

8.5. “TIUE Scholarships” dasturini e‘lon qilish muddatlari:

8.5.1. “TIUE Scholarships” uchun hujjat topshirish tartibi va muddatlari Universitetning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari orqali arizalar qabul qilish muddatidan kamida 20 kalendar kuni oldin e‘lon qilinadi.

8.5.2. “TIUE Scholarships” ga ega bo‘lgan talabalar ro‘yxati nomzodlarning hujjatlarini qabul qilish yakunlanganidan keyin 15 ish kunidan kechikmay e‘lon qilinadi.

9. APELLYATSIYA TARTIBI

9.1. Nomzodlar natijalar e‘lon qilingan kundan boshlab 5 ish kuni mobaynida Kengash qarori bo‘yicha yozma apellyatsiya berish huquqiga ega.

9.2. Apellyatsiya talablari:

9.2.1. Arizachi apellyatsiya natijalari e‘lon qilingan sanadan boshlab 5 ish kuni ichida Apellyatsiya komissiyasi raisi nomiga yozma shaklda ariza taqdim etishi lozim.

9.2.2. Apellyatsiyada quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

- arizachining F.I.Sh va kontakt ma‘lumotlari;
- qabul qilingan qarordan norozilik sabablari;
- arizachi tomonidan asoslangan izoh;
- tasdiqlovchi hujjatlar.

9.3. Apellyatsiyalarni ko‘rib chiqish tartibi:

- apellyatsiya ariza topshirilgan kundan boshlab 5 ish kuni mobaynida ko‘rib chiqiladi;
- arizachining da‘vosi asoslangan taqdirda Apellyatsiya Komissiyasi tomonidan ariza yuzasidan o‘rganish natijalari Universitet Kengashida taqdim etiladi;
- Universitet Kengashi tomonidan Apellyatsiya Komissiyasi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar 5 ish kuni mobaynida ko‘rib chiqiladi;

- Apellyatsiya Komissiyasi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar Kengashning tor doiradagi a'zolari ishtirok etishlari hamda zarur hollarda tegishli qaror qabul qilishlari mumkin.

9.4. Universitet Kengashining apellyatsiya bo'yicha vakolatlari:

- dastlabki qarorni o'zgartirishsiz qoldirish;
- qarorni qisman yoki to'liq o'zgartirish;
- taqdim etilgan hujjatlar asosida qo'shimcha o'rganish tayinlash.

9.5. Universitet Kengashi qarorning yakuniyligi:

- apellyatsiya bo'yicha Universitet Kengashi qarori yakuniy hisoblanadi va qaror yuzasidan shikoyatlar qabul qilinmaydi;
- apellyatsiya natijalari bo'yicha arizaçi jami 15 ish kuni davomida yozma ravishda xabardor qilinadi.

10. SHAFFOFLIKNI TA'MINLASH

10.1. Shaffoflikni ta'minlash tamoyillari:

- "TIUE Scholarships" mezonlarining ochiqligi va ommabopligi;
- hujjatlarni qabul qilish va o'rganish jarayonlarining oshkoraligi;
- "TIUE Scholarships" ga ega bo'lgan talabalar to'g'risidagi ma'lumotlarning oshkoraligi;
- amaldagi qonunchilik doirasida hujjatlar bilan tanishish imkoniyati.

10.2. Ma'lumotlarni doimiy tarzda e'lon qilish:

- ushbu Nizomning Universitetning rasmiy saytida joylanishi;
- "TIUE Scholarships" bo'yicha e'lonlarni o'z vaqtida joylash;
- "TIUE Scholarships" ga ega bo'lgan talabalar ro'yxatini e'lon qilish;

- “TIUE Scholarships” ga tegishli statistik ma’lumotlarni e’lon qilish.

10.3. “TIUE Scholarships” hujjatlarining yuritilishi:

- “TIUE Scholarships”ga ega bo’lgan talabalarning shaxsiy ma’lumotlar reestrini yuritish;
- moliyaviy ko‘makning miqdori va muddatlarini hisobga olish;
- “TIUE Scholarships”ga ega bo’lgan talabalarning akademik va o‘qishdan tashqari faoliyatlari ko‘rsatkichlarini monitoring qilish;
- Dastur bo‘yicha statistik ma’lumotlarni Universitetning yillik hisobotiga kiritish.

11. IJTIMOIIY-DEMOGRAFIK BELGILARIDAN QAT’IY NAZAR TENG MUNOSABATDA BO‘LISH VA AXLOQIY ME’YORLAR

11.1. Diskriminatsiyani ta’qiqlash:

11.1.1. “TIUE Scholarships”ni taqdim etish jarayonida quyidagi holatlar bo‘yicha har qanday diskriminatsiya qat’iyan taqiqlanadi:

- jins, yosh, irq, millat;
- muloqot tili, diniy e’tiqodlar;
- siyosiy qarashlar va afzalliklar;
- ijtimoiy kelib chiqish;
- oilaning ijtimoiy holati.

11.2. Nomzodlar uchun teng imkoniyatlar yaratish:

11.2.1. Belgilangan talablarga rioya etilgan taqdirda, barcha nomzodlar tanlovda ishtirok etish uchun teng huquqlarga ega.

11.2.2. Nomzodlarni baholash faqatgina Nizomda belgilangan baholash mezonida asosida amalga oshiriladi.

11.3. Hakamlar hay'atining etika majburiyatlari:

- qaror qabul qilishda adolat va obyektivlik tamoyillariga rioya etish;
- manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik;
- nomzodlarni baholash jarayonining maxfiyligini ta'minlash;
- nomzodlarning shaxsiy ma'lumotlarini oshkor etmaslik.

11.4. Korrupsiyaning oldini olish:

- manfaatli vaziyat yuzaga kelgan holatlarda, Hakamlar hay'ati a'zosi o'zini o'zi chetlashtirishi (samootvod) shart;
- arizalarni ko'rib chiqish jarayonida har qanday korrupsiya va bosim o'tkazish qat'iyan taqiqlanadi;
- Universitet dastur ishtirokchilari uchun xavfsiz va adolatli ta'lim muhitini yaratishni ta'minlaydi.

12. YAKUNIY QOIDALAR

12.1. Ushbu Nizom Universitet Rektor buyrug'i bilan tasdiqlangan paytdan boshlab kuchga kiradi.

12.2. Ushbu Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish Universitet Rektor buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

12.3. Ushbu Nizomda tartibga solinmagan bahsli masalalar Universitet Kengashining alohida yig'ilishida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

12.4. Ushbu Nizomning bajarilishini umumiy nazorat qilish Hakamlar hay'ati raisiga yuklanadi.